

Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qonun qabul qilindi

// 24.06.2026

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-samaradorligini-oshirish-bo-yi>



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2026-yil 22-iyunda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1155-son Qonun imzolandi.

Mazkur Qonun bilan:

- korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning elektron reyestri yuritilishi;
- "korrupsiyaga oid jinoyatlar" tushunchasi qonunchilikda aniq belgilanishi;
- davlat organlarida komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlari joriy etilishi;
- komplaens bo'linmalari faoliyatining mustaqilligi va xodimlar xavfsizligi kafolatlanishi;
- ayrim korrupsion jinoyatlar uchun muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengillashtirish imkoniyatlari cheklanishi;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini shakllantirish tizimi yo'lga qo'yilishi kabi muhim normalar belgilandi.

Qonun korrupsiyaga qarshi kurashishning yagona va tizimli mexanizmini shakllantirish, davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va hisobdorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.